
"YANGI O'ZBEKISTON - YANGICHA DUNYOQARASH" TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA

Qo'shtepa tumanida bo'lib o'tayotgan "Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari davomida konsert dasturi, g'azalxonlik, turli ko'ngilochar chiqishlar tashkil etilmoqda. Davlatimi rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan "Beshta muhim tashabbus" mazmun-mohiyati va ahamiyatini, bugungi kundagi yangiliklar, o'zgarishlarni xalqimizga yetkazish, ularni kayfiyatini ko'tarish maqsadida o'tkazilayotgan mazkur tadbirlar butun tumanimizni qamrab olmoqda.

"Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" mavzusida mahallalar aholisi va yoshlar uchun tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bugun Oqtepa, Qayrag'och, Vatan, Bo'ston, Xo'jaqishloq mahalla fuqarolar yig'inlari hududida bo'lib o'tdi.



Ushbu tadbirlarda tuman hokimi I.Novikov ham ishtirok etdi.

Mazkur tadbirlarda tuman hokimi o'rinbosari A.Yusupov, tuman mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari B.Mo'minova va Farg'ona Politexnika institutining o'qituvchilari ham ishtirok etdilar.



N.Otabekov,

Ma'naviyat va marifat markazi tuman kengashi rahbari.

2020-11-21 20:30:46